

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING FITOTSENOTIK ROLI VA EKOLOGIK AHAMIYATI

Islamova G. A.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya

Ushbu tezisda *Glycyrrhiza glabra* L. (shirinmiya) turining Sirdaryo viloyati sharoitida fitotsenotik roli, ekologik talablari va mavjud ilmiy manbalarda yoritilgan jihatlari tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi asosida mazkur turning o‘simlik jamoalarida tutgan o‘rni va ilmiy jihatdan o‘rganilmagan masalalar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *Glycyrrhiza glabra* L, shirinmiya, fitotsenoz, ekologik moslashuv, Sirdaryo viloyati.

Kirish

Glycyrrhiza glabra L. — dukkakdoshlilar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, asosan sho‘rlangan va namli tuproqlarda o‘shishga moslashgan. U yerosti ildizpoyalari orqali vegetativ ko‘payadi va xalq tabobati hamda farmatsevtikada muhim ahamiyat kasb etadi (Zueva, 2013; WHO, 2002). Markaziy Osiyo hududida, jumladan O‘zbekiston florasida keng tarqalgan bo‘lib, Sirdaryo viloyatida tabiiy ekotoplarning muhim komponenti sifatida uchraydi.

Ko‘plab tadqiqotchilar shirinmiyaning biologik va kimyoviy xususiyatlarini o‘rgangan. Xususan, uning tarkibida glitsirizin, flavonoidlar va saponinlar mavjudligi aniqlangan bo‘lib, ular yallig‘lanishga qarshi va immunostimulyator xususiyatlarga ega (Yuldashev, 2018; WHO, 2002). Shuningdek, Ellenberg (1996) tadqiqotlarida *Glycyrrhiza glabra* L. gidromezofit yoki kseromezofit sifatida ko‘rsatilgan. Bu turning daryo deltasi, zovur yoqasi, sho‘rlangan yerlarda o‘shishi uning ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi (Karimov, 2016).

Fitotsenologik jihatdan qaralganda, shirinmiya ko‘plab jamoalarda dominant yoki subdominant sifatida ishtirok etadi. Sodiqov (1995) hamda Abdukarimova (2019) ma’lumotlariga ko‘ra, u *Phragmites australis*, *Juncus articulatus*, *Typha angustifolia* singari turlar bilan assotsiatsiyada uchraydi. Ayrim fitotsenozlarda son jihatdan kam uchrasa ham, biomassa ulushi sezilarli bo‘lib, 20–25 % gacha yetadi. Bu uning oziq moddalarning aylanishida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘p bo‘lsa-da, Sirdaryo viloyatining meliorativ va sho‘rlangan hududlarida *Glycyrrhiza glabra* L. ning fitotsenotik roli yetarlicha o‘rganilmagan. Jumladan, biometrik tahlillar, mavsumiy fenologik bosqichlar va dominantlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar kam uchraydi. Shuningdek, tuproqning fizik-kimyoviy

sharoitlari bilan shirinmiyaning ekologik moslashuv mexanizmlari o'rtasidagi bog'liqlik ham ilmiy tadqiqotlarda yetarli darajada yoritilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, *Glycyrrhiza glabra* L. O'zbekiston fitotsenozlarida ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim tur hisoblanadi. Uning farmakologik qiymati keng o'rganilgan bo'lsa-da, Sirdaryo viloyatida tabiat kompleksidagi fitotsenotik roli, biomassaga qo'shadigan hissasi va ekologik moslashuv imkoniyatlari bo'yicha izlanishlar yetarli emas. Shu sababli, mazkur dissertatsiya doirasida ushbu turga oid kompleks fitotsenologik va ekologik tadqiqotlar olib borish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Yuldashev T.Yu., Karimov A.N. Shifobaxsh o'simliklar. – Toshkent: Fan, 2018. – 245 b.
2. Sodiqov M. O'zbekiston florasini va uning bioekologik xususiyatlari. – Samarqand: Zarafshon, 1995. – 183 b.
3. Zueva N.V. Fitokimyaviy tahlil asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. – 201 b.
4. WHO monographs on selected medicinal plants. Vol. 2. – Geneva: World Health Organization, 2002. – 304 p.
5. Ellenberg H. Zeigerwerte der Gefässpflanzen Mitteleuropas. – Scripta Geobotanica, 1996. – 97 p.
6. Abdulkarimova M. Fitotsenozlar tarkibida shirinmiyaning o'rni. // O'zMU ilmiy jurnali. – 2019. – №2. – B. 45–50.
7. Karimov A.N. O'simliklarning sho'r va namlikka moslashuvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 132 b.